

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**RAZZOQOV QOSIMBEK QUVANOVICH**

**HINDISTONDA TASAVVUF TA’LIMOTINING YOYILISHI  
(CHISHTIYA TARIQATI MISOLIDA)**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации  
доктора философии (PhD) по философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract  
of Doctor of Philosophy (PhD) on Philosophical Sciences**

**Razzoqov Qosimbek Quvanovich**  
Hindistonda tasavvuf ta'limotining yoyilishi (Chishtiya tariqati misolida) ... 3

**Раззоков Косимбек Куванович**  
Распространение суфизма в Индии (на примере тариката Чистия) ..... 25

**Razzakov Kosimbek Kuvanovich**  
The spread of Sufism in India (on the example of the Chishtiya principle) .. 47

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**  
Список опубликованных работ  
List of published works ..... 53

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**RAZZOQOV QOSIMBEK QUVANOVICH**

**HINDISTONDA TASAVVUF TA’LIMOTINING YOYILISHI  
(CHISHTIYA TARIQATI MISOLIDA)**

**09.00.03 – Falsafa tarixi**

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.2.PhD/Fa1306 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.fs-ik.uz](http://www.fs-ik.uz)) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Karimov Rahmat Raxmonovich**  
falsafa fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xolmo'minov Ja'far Muxammadiyevich**  
falsafa fanlari doktori, dotsent

**Navruzova Gulchehra Nigmatovna**  
falsafa fanlari doktori, professor

**Etakchi tashkilot**

Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil 23 iyun kuni soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24, faks: (99871) 246-02-24, e-mail: [nauka@nuu.uz](mailto:nauka@nuu.uz). O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (88 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil 12 iyun kuni tarqatildi.  
(2023 yil 12 iyundagi № 10 raqamli reestr bayonnomasi).

**I.S. Saifnazarov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

**G.M. Ruzmatova**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari doktori, professor

**J.S.Ramatov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarining borgan sari keng ommalashuvi zamirida insoniyat tafakkurining ajralmas qismi bo'lgan shaxs ruhiy-ma'naviy kamolotini takomillashtirib, rivojlantirib borish muhim konstruktiv ahamiyatga ega sanaladi. Shu bois aholi, ayniqsa yoshlarni ruhiy-ma'naviy qashshoqlik va axloqiy buzuvchi singari destruktiv illatlardan himoya qilish dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Bunda insonni ruhiy-axloqiy jihatdan komillikka undovchi umuminsoniy madaniyat tarkibi sanalgan tasavvuf ta'limoti maydonga keladi. Zero, tasavvuf irfoniy-falsafiy ta'limot bo'lib, bugungi radikal o'zgarishlar jarayonini ma'naviy-ruhiy me'yorlashtirish bilan birga, umuminsoniy qadriyatlarni e'zozlash yo'lida insonparvarlik tamoyillariga ham asoslangandir.

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot markazlarida tasavvuf ta'limoti, insonning ruhiy-ma'naviy kamoloti, axloqiy komillikka erishish kabi masalalar bo'yicha bugungi kunda salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, mazkur tadqiqotlarda mutasavvuf mutafakkirlar tomonidan ilgari surilgan ezgu g'oya va falsafiy qarashlarning komil inson g'oyasi, yoshlarning ruhiy-ma'naviy dunyoqarashini kengaytirish hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda diniy-axloqiy me'yorlar va konfessiyalararo bag'rikenglik munosabatlarini qaror toptirishdagi o'rniga ahamiyat qaratilib, Chishtiya tariqat namoyondalarining falsafiy merosini o'rganish va ilgari surilgan ezgu g'oya va falsafiy qarashlarini ilmiy-nazariy jihatdan asoslashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda yoshlar dunyoqarashini boyitish, ularning ruhiy-axloqiy jihatdan kamol topishida tasavvuf ta'limoti ma'naviy merosidan unumli foydalanish davr talabiga aylangan. Chunki, "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda"<sup>1</sup>. Shu nuqtai nazardan, tasavvuf va Chishtiya tariqatining jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash borasidagi qarashlarini tadqiq etish, vatanparvarlik tuyg'ularini yoshlar ongiga singdirish hamda tariqatning tub mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish vazifalari mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2016 yil 14 sentyabrdagi "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni, 2017 yil 28 iyuldagi PQ-3160-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi, 2018 yil 16 apreldagi PF-5416-sonli "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019 yil 8 apreldagi PF-5465 sonli "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish kontseptsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar

---

<sup>1</sup> Мирзиёев Ш.М. Жисмоний ва баркамол ёшлар-бугунги ва эртанги кунимизнинг ҳал қилувчи кучидир// Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. -Т.: Ўзбекистон, 2017. -Б. 504-505.

to‘g‘risida”gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining 1. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” dasturining ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Bugungi globallashuv davrida tasavvuf ta’limoti tadqiqiga oid ilmiy izlanishlarga bo‘lgan e’tibor tobora ortib bormoqda. Xususan, G‘arb olimlaridan: John A. Subhan, G.Bongard-Levin, A.Shimmel, A.Ali-zade, Dj.Trimingem, Paul Yurgen, Tohsin Yozuchi, Saljuk Eroydin<sup>1</sup>, rus olimlaridan: V.Bartold, E.Belyayev, E.Bertels, G.Kerimov, I.Krachkovskiy, A.Krimskiy, I.Petrushevskiy<sup>2</sup> singari tarixchi, faylasuf va madaniyatshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlarida tasavvuf ta’limotining nazariy masalalariga umumiy e’tiborlarini qaratishgan.

Markaziy Osiyo mintaqasida tasavvuf ta’limotining paydo bo‘lishi, shakllanishi va uning ijtimoiy mohiyatiga oid tadqiqotlar V.Bartold, E.Krimskiy, V.Gordlevskiy, I.Goldtsiyer, E.Belyayev, A.Knish, L.Klimovich<sup>3</sup> kabi olimlar tomonidan olib borilgan bo‘lib, ular tasavvuf ta’limoti, zohidlik-so‘fiylik harakati kabilar ijtimoiy mohiyatini ochib berishga harakat qilganlar. Tadqiqotchilar shuningdek, islom dini, tasavvuf ta’limotining mohiyati, g‘oyasi, manbalari, shariat, tariqat, ma’rifat, haqiqat kabi tasavvuf bosqichlari, tasavvufning asosiy yo‘nalishlari hamda ularning Markaziy Osiyo ijtimoiy-siyosiy hayotida, davlat boshqaruvida tutgan o‘rnini tahlil etishga harakat qilganlar.

Mamlakatimiz tadqiqotchi olimlaridan esa N.Komilov, R.Shodiyev, G.Navro‘zova, J.Xolmo‘minov, H.Homidiy, E.Karimov, K.Rahimov, Z.Ishoqova<sup>4</sup>

---

<sup>1</sup> Қаранг: John A. Subhan “SUFISM ITS SAINTS and SHRINES”. Lahore, India. 1938. -Pp. 388; Бонгард-Левин Г. История Индии. Краткий очерк. М., 1973. 2-е изд. М., 1979. 558 с.; 18 л. илл. Культура Индии в XIII—XIV вв. Шиммель, Аннемари. Распознавание символов Бога. Феноменологический подход к Исламу. Глава 1. Чиштиты. // Али-заде А.А. Исламский энцикло-педический словарь. -М.: Ансар, 2007. -400 с. Тримингем Дж. Суфийские ордены исламе. -М.: 1989; Paul Jurgen. Die Politische und soziabe Bedeutung der Naqsbandiyya in Mittelasiien im XV jahrhundert. Berlin-New York. 1991. -P. 164-207. Суфизм в Центральной Азии (Зарубежные исследования).-С-Пб.: С-ПбГУ, 2001. Tohsin Yazici. Islam antolojisi. Istanbul: 1954.Т.2. -Б. 52-54; Saljuk Eroydin. Nakshbendiyya tarikati tasavvuf va tarikatlar.- Istanbul: 1981. -Б. 217-235.

<sup>2</sup> Бартольд В.В. Ислам и культура мусульманства. -М.: 1992. Беляев Е.А. Арабы, ислам и Арабский халифат в раннее средневековье. -М.: 1966; Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. -М.: 1965; Керимов Г.М. Аль-Газали и суфизм. -Баку: 1969; Крачковский И.Ю. Арабская литература на Северном Кавказе // Избранные сочинения. Т. 6. -М.: 1960; Крымский А.Б. Очерк развития суфизма. -М.: 1895; Петрушевский И.П. Ислам в Иране в VII-XV веках. -Л.: ЛГУ, 1966;

<sup>3</sup> Бартольд В.В. Туркистон в эпоху монгольского нашествия. - Спб.: 1903; Бартольд В.В. Ислам. Общий очерк. - Петроград, 1918; Крымский А.Е. История Персии, её литературы и дервишской теософии. -М.: 1914-1917, ст.1-3; Гордлевский В.А.Баха-уд-дин Нақшбанд Бухарский. К вопросу и населениях в системе; Голдциер И.Э. Лекции об исламе. -Спб.: 1912; Культ святых в исламе (Мухаммадинские эскизы). -М.: 1933; Беляев Е.А. Мусульманское сектанство (исторический очерк). -М.: 1957; Кныш А.Д. Мусульманский мистицизм. -М.: -Санкт-Петербург. «ДИЛЯ». 2004; Климович Л.И. Ислом. -М.: Наука.: 1965.

<sup>4</sup>Комилов Н.К. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. Биринчи китоб. Т.: «Ёзувчи». 1996. - Б. 271; Шодиев Р.Т. Ўрта Осиё тасаввуфи ва ахлоқий кадриятлар. -Самарқанд, Зарафшон, 1993; Наврўзова Г. Нақшбандия

kabi o‘zbek olimlari tasavvuf ta’limotining o‘rganilishiga salmoqli hissa qo‘shgan. Zotan Zamira Ishoqova aytganidek, tasavvuf orqali kishilar islom dinining botiniy va zohiriy go‘zalligini, buyuk insonparvarlik mohiyatini anglyadilar.

Chishtiya tariqati bo‘yicha O‘zbekistonda umumiy izlanishlar olib borgan quyidagi olimlar o‘z ishlarida to‘xtalgan. Shunday olimlardan N.Nizomiddinov<sup>1</sup>, U.Turar<sup>2</sup> A.Juzjoniy<sup>3</sup>, S.Karimov<sup>4</sup>, H.Hamidov<sup>5</sup>, I.Usmonov<sup>6</sup>, S.Ismoilov<sup>7</sup> va kabilar.

Shuningdek, ushbu dissertatsiyada birinchi manba sifatida Amir Husrav Dehlaviyning “Afzal al favoid”<sup>8</sup> (fors tilida) asarida, Hasan Dehlaviyning “Favoid ul favod”<sup>9</sup> (urdu tilida) va G‘ulom Ali Oriyon tuzgan “Tariqati Chishtiya”<sup>10</sup> majmuasi kabi manbalardan tadqiqot ishi yuzasidan ilmiy asosli ma’lumotlarga to‘xtalib o‘tilgan.

Islom dini doirasida yuzaga kelgan va boshqa dinlar bilan o‘zaro birgalikda faoliyat yuritgan Chishtiya so‘fiylik ta’limoti Hindiston musulmon xalqlari hayotida ham o‘z aksini topdi, ularning dunyoni anglashlarida muhim o‘rin egallagan. Ayni shu ma’noda mazkur tadqiqotda Hindistonda tasavvuf ta’limotining yoyilishi va Chishtiya tariqatining falsafiy ahamiyatini o‘rganishga alohida e’tibor qaratilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Hindistonda tasavvuf ta’limotining yoyilishi (Chishtiya tariqati misolida) nomli mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Sharq falsafasining dolzarb muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tasavvuf ta’limotining Hindistonda keng yoyilgan Chishtiya tariqatining falsafiy mohiyatini ochib berish va ilmiy-nazariy takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

- Hindistonga tasavvuf ta’limoti kirib kelishining tarixiy shart-sharoitlarini ochib berish;
- tasavvuf rivojida Chishtiya tariqati asoslari va falsafiy g‘oyalarini o‘rganish;

---

тасаввуфий таълимоти ва баркамол инсон тарбияси. Фал.фан.док.дис. -Т.: 2002.- Б. 269.; Холмўминов Ж. Ваҳдат ул-вужуд фалсафаси ва унинг нақшбандия таълимотига таъсири. –Т.: 2021. – Б. 244.; Ҳомидий Ҳамиджон. Тасаввуф алломалари. – Тошкент: «Шарқ», 2004. – Б. 208.; Каримов Э.Э. Яссавия и ходжагон нақшбандия: история действительная и вымышленная. -Т.: «Узбекистан». 2000. - С. 80.; Комилжон Раҳимов. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). –Т.: Академнашр, 2020. – Б. 400.; Замира Исҳоқова. «Машраб». Тошкент «Узбекистан». 2015. - Б.130.; Замира Исҳоқова. «Шайх Нажмиддин Кубро». Тошкент «Узбекистан». 2013. – Б. 136.

<sup>1</sup> Низомиддинов Н.Ф. Ҳиндистонда тасаввуф тарихи ва адабиёти. -Т.: 2014. - Б. 105.

<sup>2</sup> Усмон Турар Тасаввуф тарихи. Тошкент: Истиклол. 1999. -Б. 122.

<sup>3</sup> Жўзжоний А. Тасаввуф ва инсон. Тошкент: “Адолат”, 2001. – Б. 17-38.

<sup>4</sup> Каримов С. Тасаввуф фалсафаси. -Самарқанд: СамДУ, 2021. -Б. 5.

<sup>5</sup> Ҳомидий Ҳ. Тасаввуф алломалари. -Т.: Шарқ, 2009. - Б. 10.

<sup>6</sup> Усмонов И. Тасаввуф. -Тошкент: Ислон университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2012. -Б. 80.

<sup>7</sup> Исмоилов С. “Нақшбандийлик-жаҳоншумул тариқат. -Тошкент. “Мумтоз сўз”. 2016. –Б. 48.

<sup>8</sup> ۹۳ ص ۱۸۸۷. هندوستان. دهلي. افضل الفوائد. ضوى دهلي. مير خسرو دهلوى.

<sup>9</sup> خواجه امير حسن علا سجزى دهلوى. فوايد الفوائد. الفيصل. لاهور، پاكستان. ۲۰۱۱ ص ۴۵۲.

<sup>10</sup> غلام معلى آريا. طريقه چشتيه در هند و پاكستان و خدمات پيروان اين طريقه به فرهنگ اسلامى و ايرانى. گلشن. ايران. ۱۳۶۵ ص ۱۰

- Chishtiya tariqati namoyandasi Shayx Nizomiddin Avliyo ilmiy faoliyatining falsafiy-axloqiy mohiyatini tadqiq etish;
- Amir Xusrav Dehlaviy tasavvufiy qarashlarining Chishtiya tariqati rivojida ahamiyatini ochib berish;
- XVI-XVII asrda Hindistonda ijtimoiy-siyosiy muhit va ma'naviy hayotga Chishtiya tariqati vakillari (Boburiylar sulolasi misolida) ta'sirini yoritish;
- Chishtiya tariqatining bag'rikenglik va insonparvarlik g'oyalarining ijtimoiy-axloqiy ahamiyatini tahlil qilish, tariqatning inson ma'naviy kamolotida tutgan o'rniga baho berish bilan birgalikda yangi O'zbekiston yoshlariga ahloqiy ahamiyatini tushuntirish;

**Tadqiqotning ob'ektini** Hindistonda Chishtiya tariqatining vujudga kelishi va yoyilish jarayonlari tashkil qiladi.

**Tadqiqotning predmeti** Hindistonda Chishtiya tariqatining falsafiy ahamiyati, mazmun-mohiyati, yoyilishi va rivojlanish jarayonlari tahlilidan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada umumiylikdan xususiylikka o'tish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiylik, mantiqiylik, tizimlilik, vorisiylik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tasavvuf ta'limotidagi insoniylik, bag'rikenglik, ijtimoiy mas'uliyat g'oyalarining jamiyat hayotida ijtimoiy-madaniy jarayonlar beqarorligini keltirib chiqaruvchi antigumanistik, kosmopolitizm va befarqlik illatlari ta'sirining oldini olish hamda tarbiya kontekstida yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda tarixiy voqelikni aks ettirganligi sababli substantsional asosga ega ekanligi ochib berilgan;

Chishtiya tariqatida bag'rikenglik va insonparvarlik, komil inson g'oyasining botiniy va zohiriyligini uyg'unligi bugungi davr ruhiga, an'anaviyligini va zamonaviylikka mosligi, tana va ruh birligi axloq shakllanishining asosi ekanligiga oid ilg'or g'oyalar mavjudligi germeneytik jihatdan asoslangan;

Chishtiya ta'limoti namoyandalari Abu Ishoq, Muhyiddin Chishtiy, Nizomiddin Avliyo, Xusrav Dehlaviyning qarashlarida jamiyat va shaxs munosabatlarida murosa va madora falsafasi, tariqat rivojining g'oyaviy evolyutsiyasining jamiyat rivojiga ta'sir etishdagi konstruktiv ahamiyati ochib berilgan;

jamiyat stratifikatsion tizimida buzg'unchi g'oyalar va soxta salafiy oqimlar ta'sirida shakllanayotgan axloqsizlik hamda "ommaviy madaniyat" xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda Chishtiya tariqatida ilgari surilgan amaliy axloqqa oid erkparvarlik, vatanparvarlik kabi tamoyillar, makon va zamonga bog'liq ijtimoiy-axloqiy qarashlar va tarbiyaga qaratilgan ma'naviy-irfoniy tavsiyalardan foydalanish zaruriyati asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

Chishtiya tariqati namoyandalarining olam va odam haqidagi g'oyalari hamda ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-axloqiy qarashlarini falsafa, dinshunoslik, ma'naviyatshunoslik, pedagogika kabi fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish

bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqilgan;

tasavvuf haqidagi tasavvurlarda tarixiylik asosida zamonaviy tasavvurlarni shakllantirish, tasavvuf ta'limotida ontologik, gnoseologik, ijtimoiy-madaniy jarayonlarning ob'ektiv asosi sifatida jamiyat va ijtimoiy ong dialektikasidagi falsafiy asoslarini o'rganish hamda falsafa tarixining o'rta asrlar bilan bog'liq evolyutsion rivojlanish yo'lini anglatishini o'rganish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferentsiyalarda muhokama qilinganligi, xulosa, taklif, tavsiyalar va olingan natijalarning amaliyotga joriy etilganligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tasavvuf ta'limotining Hindiston zaminiga kirib kelishiga oid manbalar bilan birgalikda tasavvuf falsafasi rivojida Chishtiya tariqatining mohiyati va ahamiyatini yoritish hamda ijtimoiy fanlar bo'yicha darslik, qo'llanmalar tayyorlash va undan keyingi tadqiqotlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda ilgari surilgan gumanistik ezgu g'oyalarni zamonaviy, yosh barkamol avlodni tarbiyalash jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, ilmiy ishdagi taklif va tavsiyalardan aholining turli qatlamlariga milliy ma'naviy merosimiz bilan faxrlanish, yoshlarda ajdodlarga munosib avlod bo'lish tushunchasini singdirish, ajdodlarimizning madaniy an'analarini o'rganish ishlarini jonlantirishda foydalanish mumkin.

#### **Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.**

Hindistonda Chishtiya tariqatining vujudga kelishi va yoyilish jarayonlari mavzusidagi tadqiqot natijalari asosida:

tasavvuf ta'limotidagi insoniylik, bag'rikenglik, ijtimoiy mas'uliyat g'oyalarining jamiyat hayotida ijtimoiy-madaniy jarayonlar beqarorligini keltirib chiqaruvchi antigumanistik, kosmopolitizm va befarqlik illatlari ta'sirining oldini olish hamda tarbiya kontekstida yoshlarning ma'naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirishda tarixiy voqelikni aks ettirganligi sababli substantsional asosga ega ekanligiga oid taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023 yil uchun chora-tadbirlar dasturining VI yo'nalishida belgilangan "Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik bo'yicha targ'ibot-tashviqot tadbirlari, aholi o'rtasida radikalizm illatini oldini olish", 26-bandi "Jamiyatda radikallasuv jarayonlari kuchayishining oldini olish, yoshlar ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga qaratilgan turli xil harakatlarga qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalarni belgilash va amalga oshirish" mavzusidagi targ'ibot ishlarini o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023 yil 10 martdagi №02-22-206-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, va tavsiya mamlakatimizda Chishtiya tariqatining bag'rikenglik va insonparvarlik g'oyalarining ijtimoiy-axloqiy

ahamiyatini tahlil qilish, tariqatning inson ma'naviy kamolotida tutgan o'rniga baho berish bilan birgalikda yangi O'zbekiston yoshlariga ahloqiy ahamiyatini tushuntirishga xizmat qilgan;

Chishtiya tariqatida bag'rikenglik va insonparvarlik, komil inson g'oyasining botiniy va zohiriylilik uyg'unligi bugungi davr ruhiga, an'anaviylik va zamonaviylikka mosligi, tana va ruh birligi axloq shakllanishining asosi ekanligiga oid ilg'or g'oyalar mavjudligi germenevtik jihatdan asoslanganligi borasidagi ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi qoshidagi "O'zbekiston" teleradiokanalining 2022 yil mart va iyun oylaridagi "Jahon adabiyoti", "Millat va ma'naviyat", "O'zbekiston yoshlari" dasturlarini samarali tashkil etishda, ularning dastur va senariylarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi qoshidagi "O'zbekiston teleradiokanali" davlat muassasasining 2022 yil 6 iyuldagi №04-36-1076-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ilmiy xulosalar xalqimiz ma'naviy merosini, urf-odatlarini va milliy tarbiya an'analari tarqatib etishda, insonlar o'rtasida bag'rikenglik va insonparvarlik tushunchalariga doir konstruktiv g'oyalar, metodologik tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qilgan;

Chishtiya ta'limoti namoyandalari Abu Ishoq, Muhyiddin Chishtiy, Nizomiddin Avliyo, Xusrav Dehlaviyning qarashlarida jamiyat va shaxs munosabatlarida murosa va madora falsafasi, tariqat rivojining g'oyaviy evolyutsiyasining jamiyat rivojiga ta'sir etishdagi konstruktiv (bunyodkorlik) ahamiyatiga oid taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi"ning millatlararo va konfessiyalar hamjihatlikka targ'ib qiluvchi turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarini, shuningdek, "Hindiston-O'zbekiston" do'stlik jamiyati bilan o'zaro hamkorlikda ikki davlat o'rtasidagi madaniy aloqalarini yanada rivojlantirishga bag'ishlangan uchrashuvlarni tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasining 2022 yil 25 martdagi №14-07-446-sonli ma'lumotnomasi). Olingan natijalar qo'mitaning keng aholi o'rtasida hamjihatlik, o'zaro hurmat, jamiyatda kishilar o'rtasida murosa yo'lini tutish munosabatini rivojlantirishga oid ko'nikmalarini takomillashtirishga xizmat qilgan;

jamiyat stratifikatsion tizimida buzg'unchi g'oyalar va soxta salafiy oqimlar ta'sirida shakllanayotgan axloqsizlik hamda "ommaviy madaniyat" xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishda Chishtiya tariqatida ilgari surilgan amaliy axloqqa oid erkparvarlik, vatanparvarlik kabi tamoyillar, makon va zamonga bog'liq ijtimoiy-axloqiy qarashlar va tarbiyaga qaratilgan ma'naviy-irfoniy tavsiyalardan foydalanish zaruriyatiga asoslangan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2021-2022 yillarda o'tkazilgan targ'ibot jarayonida foydalanilgan. Jumladan, joylarda "Jaholatga qarshi – ma'rifat", "Ajdodlar merosining barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni", "Biz yot

g'oyalari va axborot xurujlariga qarshimiz", "Axborot xurujlari va yot g'oyalarning jamiyatga salbiy ta'siri" kabi targ'ibot faoliyati doirasida amalga oshirilgan ma'naviy-ma'rifiy uchrashuvlar va davra suhbatlarini o'tkazishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi 2023 yil 22 fevraldagi № 0284-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, global axborot makoni ta'sirida milliy mentalitetimiz, milliy qadriyatlarimiz, azaliy an'ana va urf-odatlarimizning qadrini oshirish, barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qiladigan g'oyaviy tarbiya mexanizmini kuchaytirish uchun nazariy va metodologik asos bo'lib xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 8 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy amaliy konferentsiyalardagi ma'ruzalarda, kafedrada o'tkazilgan ilmiy seminarda bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.**

Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (6 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

**Dissertatsiyannig tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uchta bob oltita paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib. Umumiy hajmi 140 betni tashkil etadi.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi, dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti, predmeti, usullari yoritilgan. Shuningdek, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy-amaliy ahamiyati tavsiflangan.

Dissertatsiyaning "**Chishtiya tariqati va uning diniy-falsafiy ta'limot sifatida shakllanishi**" deb nomlangan birinchi bobida tasavvuf ta'limoti, uning Hindiston zaminiga kirib kelishi va tasavvuf falsafasi olamida Chishtiya so'fiylik tariqatining paydo bo'lish tarixi, tariqatning mazmun-mohiyati, sabab va oqibatlari tadqiq etilgan.

Tasavvufning kelib chiqish tarixiy taraqqiyoti jarayonida zohidlik davri (VIII-IX asrlar), so'fiylik maktablari va oqimlari davri (IX-XI asrlar) hamda so'fiylik tariqatlari davri (XII asrdan keyin) deb nomlanuvchi uch davrni bosib o'tgan. Jumladan, VIII-IX asrlarda Madina, Basra, Kufa va Xuroson zohidlik maktablari bilan bir vaqtda Markaziy Osiyo zohidlik maktabi, shuningdek, IX-XI asrlarda

Nishopur, Misr, Damashq va Bag‘dod so‘fiylik maktablari bilan birga Markaziy Osiyo so‘fiylik maktabi ham mavjud bo‘lgan<sup>1</sup>.

Tadqiqotchi fikricha, tasavvuf tushunchasi ham Qur‘on mazmunini, ham Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning go‘zal fe‘l-atvori – taqvo (taqvo), ehson (ilohiy huzurni anglash), zuhd (zohidlik), istiqomatlik namoyon bo‘lishini o‘z ichiga oladi. Ularsiz islomni tasavvuf etib bo‘lmaydi, shuning uchun bu fazilatlar har bir musulmon shaxsining bir qismiga aylanishi kerak. Zotan, yuqoridagi sifatlar mazkur tariqatning amaliy ifodasidir. Akademik M.Xayrullayev ta‘kidlaganidek, “Tasavvuf – musulmon Sharqi xalqlarining ma‘naviy hayoti tarixida keng tarqalgan ta‘limotlardan biridir”<sup>2</sup>.

Islom Hindistonga VII asrda kirib kelgan davrda bu yerda buddizm, hinduizm, mistik xatti-harakatlar, an‘analar ko‘p uchraydi. Bu rang-barang qorishma so‘fiylikning hindlar ongida keng tarqalishiga yordam berdi. Xususan, Xazariy Prasad Dvivediy so‘fiylikning Hindistonda tasavvuf tariqati yoyilishidagi o‘rniga bergan bahosiga ko‘ra, “Hind va musulmon harakatlarini yaqinlashtirgan va ularning o‘rtalaridagi begonalik pardalarini uloqtirib tashlagan so‘fiylarni biz hech qachon unutmamiz!”. Mazkur qarashlar va tahlillarga tayanilgan holda tadqiqot ishida hind tuprog‘ida islomga nisbatan oddiy avom ichida qiziqish uyg‘onishiga avvalo so‘fiylarning xizmati katta bo‘lganligi ochib beriladi.

Dissertatsiya ishida hind tasavvufi tarixi taxminan VIII asrda arab savdogarlari bilan birga kelgan so‘fiylar tashrifi bilan boshlangan bo‘lsa-da, lekin ularning bu diyorda qo‘nim topishlari va asosiy namoyondalari manbalarda turlicha talqin etilganligi hamda tasavvufning ushbu o‘lkaga kirib kelishi haqida tadqiqotchi olimlar aniq bir umumiy to‘xtamga kelinmaganligi ta‘kidlangan.

Hindistonda tasavvuf ta‘limoti tarqalishi tarixi haqida quyidagi talqinlar mavjud:

1. Arablarning savdo-tijorat safarlari va ularning ilk Hindistonga yurish davri.
2. XIII asrdan so‘fiylarning Hindiston Kichik Osiyoga ko‘chish davri.
3. Tasavvufning hind adabiyotiga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan XIII-XIV asrlar oralig‘i davri<sup>3</sup>.

Dastlab arablar yoki o‘rta osiyolik savdogarlar bilan Hindistonga kelgan ayrim so‘fiylardan tashqari, rasman Ajmirida o‘z faoliyatini boshlagan birinchi eng yirik jamoa “Chishtiya suluki” edi<sup>4</sup>.

Ushbu bob paragraflari tahlilida Shihobuddin Olamaroning “Masolikul absor” asari manbalariga tayanilib, XVI asrda Dehli va uning atroflarida ikki mingga yaqin xonaqohlar bo‘lganligi ko‘rsatib o‘tilgan.

---

<sup>1</sup> Комилжон Раҳимов. Мовароуннаҳр тасаввуфи тарихи: таълимотнинг шаклланиши ва тизимлаштирилиши (VIII-XI асрлар). –Т.: Академнашр, 2020. – Б.12.

<sup>2</sup> Из истории суфизма: источники и социальная практика. Под ред. М.Хайруллаева. –Т.: 1991. – С.2.

<sup>3</sup> Тошкент ислом университети исломшунослик илмий-тадқиқот маркази. Тасаввуф тариқатлари. –Т.: 2016. - Б. 190.

<sup>4</sup> Низомиддинов Н.Ф. “Ҳиндистонда ислом: тарих, ижтимоий-сиёсий ҳаёт ва хинд-муслмон маданияти”. –Т.: 2008; Воҳидов Р., Неъматов Х., Маҳмудов М. Сўз бағридаги маърифат. –Т.: Ёзувчи, 2001. –Б. 158-159.

Tadqiqotchi xulosasiga ko‘ra, so‘fiylik g‘oyalari butun musulmon dunyosida tez tarqalib, Hind olamiga kirib kelganidan so‘ng, tasavvuf bu yerda islomning bir shakli sifatida ildiz otdi.

Chishtiya tariqati namoyandalari o‘z faoliyati davomida, shogird va muridlariga na‘muna bo‘la olish bilan birgalikda, bevosita Qur‘oni karim va sunnatga muvofiq ish olib borishi haqida yana bir to‘xtalib o‘tsak, “Nahl” surasidagi 128-oyatning “... albatta, Alloh taqvodorlar va yaxshi amal qiluvchilar tarafidadir”<sup>1</sup> qismiga asoslangan holda Allohning bandalarini sabr va chiroyli, ezgu amallarni bajarishlariga da‘vat etishi bilan birgalikda, ko‘rib turishini ham uqtirmoqda.

Ta‘kidlash kerakki, hind-musulmon ma‘naviy hayotining yuksaklikka erishuviga Chishtiya tariqati beqiyos xizmat qilish bilan birga, yagona maqsad atrofida jipslashtirishga, jamiyatning turli tabaqalari o‘rtasida do‘stlik, birodarlik aloqalarini mustahkamlanishiga zamin yaratgan. Chunki mazkur tariqatda islom shariati mezonlari buzilishiga yo‘l qo‘yilmay, chin insoniy fazilatlar ulug‘lanib kelinganligini aytish mumkin. Binobarin, Payg‘ambarimiz sallolohu alayhi vasallam: Sizlarning yaxshilaringiz dunyo ishini deb, oxirat ishini, oxiratni deb esa dunyo ishini tark qilmaydigan, odamlarga maloligini tushirmaydiganingizdir, deb aytganlar.

XII asrga kelib tasavvuf tarixida shunday bir jarayon yuzaga keldiki, bu paytda tasavvuf tarkibidan alohida tariqatlar yoxud maktablar ajralib chiqib, o‘z faoliyatlarini boshladi. Bunday tariqatlar soni sharqshunos I.Petrushevskiyning qaydicha, bir necha o‘nlab tariqatdan iborat bo‘lib, XIV asrda ulardan 12-14 tasi ommaviy tariqatlar edi.

Ushbu bobda Chishtiya tariqatining ilk bor Chishtda shakllanganligi va o‘rta asrlarda Hindistonda so‘fizmning vujudga kelishi va rivojlanishiga imkoniyat yaratganligi ochib berilgan. Xususan, Chishtiya tariqati asoschisi hazrati Shayx Abu Ishoq Shomiy r.t. (rahimahullohu taolo - Allohu taolo unga rahm qilsin) hisoblanib, o‘z davrining buyuk shayxi bo‘lgan. U Suriyada tug‘ilib, dastlabki faoliyatini dastlab, o‘sha yerda boshlagan. Garchand Abu Ishoq Shomiy o‘z davrida ma‘lumi mashhur bo‘lsalarda, allomaning tarjimai hollarini mukammal ifoda etgan manba yoki tarix mavjud emas.

“Chishtiya tariqatining tarixdagi shuhrati va ahamiyati Xoja Muhyiddin Chishtiy, Qutbiddin Bahtiyor Kakiy, Bobo Fariddin G‘anji Shekar, Nizomiddin Oliya va nihoyat Shayx Nosiriddin Cherad Dehlaviy rahbarlik qilgan va boshqargan davr bilan bog‘liq”<sup>2</sup>.

Chishtiya umumiy nazariy jihatdan barcha yirik tariqatlar bilan umumiylikka ega. Tariqatlardagi o‘zaro farqli jihatlar ko‘pincha amaliyotda ko‘rinadi. Masalan, suhravardiyada jazba va jo‘shqinlikka ortiqcha e‘tibor berilmay, hilvat holida qalbiy zikrga “la ilaha illalloh” ga asoslanadi. Mujaddidiyda tariqati esa bevosita

<sup>1</sup> Куръони карим. Бақара сураси, 152-оят // Алоуддин Мансур. Куръони карим ўзбек тилидаги изоҳли таржима. – Тошкент: Чўлпон нашриёти, 1992.– Б. 188.

<sup>2</sup> غلام معلى آريا. طريقه چشتيه در هند و پاكستان و خدمات پيروان اين طريقه به فرهنگ اسلامى و ايرانى. گلشن. ايران. ۱۳۶۵. ص ۲۱۵۲

naqshbandiyadan kelib chiqqan bo‘lib u Imomi Rabboniy Ahmad Foruq Sirhindiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, xojoganiya-naqshbandiya, naqshbandiya-ahroriyadan keyingi bir bosqich bo‘lib, naqshbandiya-mujaddidiya tarzida ifoda etiladi.

Umuman, tadqiqot ishida Chishtiya tariqati vujudga kelishining diniy, ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy sabablari tahlil qilingan.

Jumladan, Chishtiya tariqati islom dinini targ‘ib va tashviq qilgan tariqat sanalib, avvalo, islom ta‘limoti, Qur‘on oyatlari va hadislarga tayangan holda vujudga kelganligi ta‘kidlanar ekan, sababi Allohning barcha joyda nozir ekanligi, Uning o‘z bandalariga yaqinligi, ularni yod etishi, sevishi asnosida, bandalarining ham javoban, Uni eshlari, sevishlari va Undan rozi bo‘lishga, shuningdek, nafsga qarshi kurashish orqali ezgu xislatlarga ega inson bo‘lishga chorlashi kabi oyat va hadislardan foydalanishida, deb tushuntiriladi.

Hind diyorida olib borilgan yurishlar oqibatida ko‘plab amaldorlarning o‘lja va soliqlarga bo‘lgan munosabati, qolaversa yangi oy chiqqanda hukmdorga atab, sovg‘a-salomlar ulashishlik kabi holatlarga Chishtiya tariqati namoyandalari qarshilik bildirishganligi kabi asoslarga ko‘ra uning ijtimoiy-iqtisodiy sabablari tahlil qilinadi. O‘lkada hokimiyat uchun kechgan qonli urushlar natijasida hokimiyatga yangi amaldorlarning chiqishi va ular tomonidan olib borilgan siyosat ushbu tariqat tarafdorlariga to‘g‘ri kelmasligi tufayli Chishtiya tariqati namoyandalari Ayudxonlariga borib Ustoz-Shogird o‘zlarining odob-axloqqa oid suhbatlari bilan berilishiga sabab bo‘ldi. Zero, hukmron tabaqalarning moddiy boylikdan ma‘naviyatni ustun qo‘yuvchi, ijtimoiy adolatni targ‘ib qiluvchi, barchani tinchlik va totuvlikka chorlovchi islom ta‘limotini o‘z manfaatlariga moslab talqin etishlarini tariqat vakillari qabul qila olmaganliklari tariqat yuzaga kelishining ijtimoiy-siyosiy omillari sifatida keltiriladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Chishtiya tariqatining Hindistondagi musulmon-hind madaniyati rivojidadagi o‘rni”** deb nomlangan bo‘lib, ushbu bobda Sharqning hurfikrli mutafakkirlari, Chishtiya so‘fiylik ta‘limotiga o‘z hissalarini qo‘shib kelgan buyuk vakillari shayx Nizomiddin Avliyo va Amir Xusrav Dehlaviylarning hayoti, faoliyati va tasavvufiy qarashlari muhokamaga tortilgan.

Avliyolar, avvalo, ularning e‘tiqodlari va muhabbatlari bilan boshqalardan ajralib turganlar. Ular yoshlikdanoq ilm o‘qishga, Allohni tanishga dinni to‘g‘ri tushunishiga jiddu jahd qilishgan. O‘qigan va bilgan har bir narsasiga qattiq amal qilishgan. Eng muhimi, ilm bilan baqamti odob-axloqqa e‘tibor berishgan, o‘gitlarida ota-ona va ustozlarning duosini olishni bot-bot ta‘kidlaganlar<sup>1</sup>.

Shayx Nizomiddin Avliyo va Amir Xusrav Dehlaviylar ham bir qator fazilatlarni o‘z hayoti faoliyatida namoyon qila olgan, shogird va muridlariga o‘rnak bo‘la olgan, Chishtiya tariqatining mashhur avliyolaridan sanaladi. Shu nuqtai nazardan ushbu bobda mazkur tariqat namoyondalarining faoliyati va ijtimoiy-ma‘rifiy jarayonlarda tutgan o‘rniga baho berilgan.

---

<sup>1</sup> Сайфиддин Сайфуллоҳ. Буюклар халқаси: (олтин силсила валийлари). -Т.: Ноширлик ёғдуси, 2011. -Б. 103.

Chishtiya tariqatining taraqqiyotida o'zining beminnat xizmatlari bilan hurmatga sazovor bo'lgan shayxlardan biri Nizomiddin Avliyodir. U XIII-XIV asrlarda Hindistonda etuk so'fiy va Farididdunning suyuqli hamda mashhur shogirdlaridan biri sanalib, Chishtiyaning rivoji ham Shayx Nizomiddin Avliyo (1236-1325) nomi bilan bevosita bog'liq.

Hazrat Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida uning "Shayx Nizomuddin Dehlaviy Xolidiy ma'ruf Shayx Nizomuddin Avliyo q.s."<sup>1</sup> deb to'liq ismi-sharifini keltiradi.

Hazrati Xoja Nizomiddin Avliyo Hindistonning to'rtinchi "Sajjadanashin" ya'ni eng yuksak ma'naviyat rahbari (rahnomo) sifatida uning o'rnini egalladi. Uning olimligi, qobiliyatli va tirishqoq boshqaruvchi qolaversa komil ma'naviyat ustози sifatidagi beqiyos xizmatlari tufayli "Sulton ul Mashoyix" va "Mahbub ul Ilohi"<sup>2</sup> kabi nomlar bilan ham atashgan. Tadqiqotchi nuqtai nazariga ko'ra, Shayx Nizomiddin Avliyo birlashmaga haqiqiy umumhindiston mavqeini bergan, shundan keyin uning ko'plab shogirdlari Chishtiya markazlariga asos soldilar.

Muhammad Habibning yozishicha, shayx Nizomiddin Avliyo 1236 yil tug'ilgan. Hozirgi Uttar Pradesh shtati hududidagi Badaun nomli joyda dunyoga kelgan<sup>3</sup>. Dehli turklar tomonidan bosib olinguniga qadar Badaun musulmonlar markazi edi. Bu yerga O'rta Osiyo, Huroson va Guradan ko'p sonli ko'chmanchilar ko'chib kelishgan. Jumladan, Nizomiddinning bobosi Buxorodan Hindistonga ko'chib kelgan. Otasi vafotidan so'ng Dehliga kelib yashay boshlagan. Hazrati Nizomiddin shogirdlik chog'ida uning ilmi va yo'l-yo'riqlaridan unumli foydalanib, Hazrati Bobo Sohibning hayratlanarli ruhiy obro'-e'tibori haqida ko'proq eshitgan.

Hasan Dehlaviy "Favaid al fuad" asarida keltirishicha, Nizomiddin shayxning maslahatlariga quloq tutib hayotini din yo'lida riyozatga, zohidlikka, tarki dunyochilikka bag'ishlashga qaror qildi va kelajakda "Allohning do'sti", "Avliyo" degan nomlar bilan butun Hindistonga mashhur bo'ldi.

Dissertatsiyada Chishtiya tariqatining yoyilishi avvalo millatlararo totuvlik, bunyodkorlik, ijtimoiy adolatni ta'minlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Millatlararo totuvlik masalasiga Chishtiya tariqatining vakillari, xususan, Nizomiddin Avliyo qarashlarida asosiy e'tibor qaratilgan. Barcha millat vakillari ijtimoiy-madaniy munosabatlarga kirishishi orqali inson qadrini ulug'lashda yuqori darajada gumanistik yondashuv shakllanishiga erishish mumkinligi ta'kidlanadi. Tariqatda millatlararo totuvlikni targ'ib qilish O'rta asrlar falsafiy tafakkur tarzi uchun muhim g'oya hisoblanadi.

Tadqiqot ishi natijalariga ko'ra, Chishtiya tariqatining ta'limoti va amaliyoti risolalarda emas, balki, shayxlarning og'zaki suhbatlari ya'ni, (malfuzat) larida o'rin olgan. Hazrati Nizomiddinning "Malfuzat" (naql va ibratli hikmatlari) ni o'z ichiga olgan 5 ta muhim nashr mavjud:

<sup>1</sup> Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Ўн еттинчи том. "Насойим ул-мухаббат". –Т.: Фан, 2001. –Б. 355.

<sup>2</sup> John A. Subhan "SUFISM ITS SAINTS and SHRINES". Lahore, India. 1938. -Pp. 221.

<sup>3</sup> John A. Subhan "SUFISM ITS SAINTS and SHRINES". Lahore, India. 1938. -Pp. 222.

1. Favaydul-favad<sup>1</sup>
2. Afzal-ul-favad<sup>2</sup>
3. Rohat-ul-Mulja bo'ldi
4. Siyar-ul-avliyo
5. Maqnatis-ul-Vehdat

Nizomiddin Avliyo oltmish yillik (1265-1325) tariqatga rahbarlik qilgan davrda Malva, Gujarat, Kashmir, Dekan, shuningdek, Bengaliyaning Laknau va Pandua shaharlarida Chishtiylarning mavqei mustahkamlanishida o'zining beminnat xizmatini ayamadi. Oxir oqibatda tariqat Shimolda ommaviy hodisaga aylanib, Hindistonning, Janub va Sharqiga qadam tashladi.

Hazrat Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat" asarida "Va Xusrav Dehlaviy va Hasan Dehlaviyning (ya'ni, Shayx Nizomuiddin Avliyo) muridlaridurlar"<sup>3</sup>, deb takidlaydi.

Dissertatsiya ishining ushbu bobida o'rganilgan tariqat namoyondalaridan yana biri - o'rta asrlar Hindiston hayotining fani va madaniyati taraqqiyotida muhim o'rin egallagan Amir Xusrav Dehlaviydir. U o'sha davrdagi Chishtiya so'fiylik tariqatining vakili bo'lib, umrining oxirigacha tariqat a'zosi bo'lib qoldi. Manbalarda ko'rsatilishicha, Hasan Dehlaviy shayxning sevimli muridlaridan biri bo'lgan va uning huzurida deyarli 20 yil kotiblik qilgan. Shoir shayxga atab "Favoid al fuad" ("Qalblarga foydalar") yana bir manbada esa "Favoid ul-fuad"<sup>4</sup> ("Dil foydalari")<sup>5</sup> asarini yozgan. Bu kitobda Chishtiya jamoasi marosimlari, Nizomiddin Avliyo hikmatlar mazmuni va yig'ilishlarida so'zlagan nutqlari, ibratli hikoyalar kabi mavzularni qamrab olgan bo'lib, Chishtiya tariqatini o'rganishda ishonchli hisoblanadi.

Xulosa qilganda, Chishtiya tariqatini yoyilishi va rivojlantirishda uning to'rtta xalifalari - Abu Ishoq ash Shomiy, Muhyiddin Chishti, Nizomiddin Avliyo, Xusrav Dehlaviylar katta xizmat ko'rsatdilar. Ular o'z faoliyatlari davomida Chishtiya asoslarini o'zidan keyingi avlodga yetib borishini ta'minladilar. Bu borada, ayniqsa, Xusrav Dehlaviyning faoliyati ham katta ahamiyatga egadir. U Nizomiddin Avliyoning shogirdi sifatida xalq orasida og'zaki va yozma targ'ibot ishlarini olib bordi.

Dissertatsiyaning **"Boburiylar sulolasining islom dini va hind madaniyatiga sinkretlashuvidagi o'rni va ahamiyati"** deb nomlangan uchinchi bobida Chishtiya tariqati rivojiga Boburiylar sulolasi namoyondalari, davlat va siyosat arboblari hamda o'sha davrdagi ilm ahli munosabatlari yoritiladi.

Hindistonda Chishtiya tariqatining yanada ravnaq topishida, o'zining Hindistonda 332 yillik tarixiga ega Boburiylar sulolasining xizmati katta bo'ldi, deyish mumkin.

<sup>1</sup> خواجه امير حسن علا سجزى دهلوى. فوايد الفؤاد. الفيصل. لاهور، پاکستان. ۲۰۱۱. ص ۴۵۲.

<sup>2</sup> مير خسرو دهلوى. افضل الفوايد. ضوى دهلوى. هندوستان. ۱۸۸۷. ص ۹۳.

<sup>3</sup> Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. Ўн еттинчи том. "Насойим ул-муҳаббат". –Т.: Фан, 2001. –Б. 355.

<sup>4</sup> خواجه امير حسن علا سجزى دهلوى. فوايد الفؤاد. الفيصل. لاهور، پاکستان. ۲۰۱۱. ص ۴۵۲.

<sup>5</sup> Эргаш Очиллов. Донишмандлар тухфаси. Тошкент. «Ўзбекистон». 2009. –Б. 250.

Tadqiqot ishida Boburiylar sulolasi asoschisi Zahiriddin Bobur va uning vorislari ham Chishtiya tariqati namoyandalariga hurmat bilan munosabat bildirganliklari bir qator tarixiy manbalar va ilmiy tahlillar asosida ochib beriladi.

Boburning davlat arbobi va bilimdon siyosatchilarga xos xususiyatlari Shimoliy Hindiston sharoitida hindlarga nisbatan diniy muxolifatdan voz kechish kabi nozik masalaga to'g'ri yondashishda hal qiluvchi rol o'ynadi. Bu tadbir natijasi siyosiy barqarorlik va feodal daromadining ikki asosiy qismi, ya'ni, savdo va hunarmandchilikni rivojlantirib, qishloq xo'jaligining yana tiklanishiga olib keldi. Shaharlarda obodonchilik, ta'mirlash, bog'i-rog'lar barpo etish va ekinzor yerlarda sug'orish ishlarining yo'lga qo'yilishi, Sambhal va Agrada masjid madrasalarning qurilishi, Boburning o'z davlatida amalga oshirgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarining ilk kurtaklari edi.

Ko'pchilik tarixchilar fikriga ko'ra Bobur dindor shaxs bo'lgan bo'lsa ham, lekin u ko'r-ko'rona xurofotchi bo'lgan emas va Hindistondagi faoliyati davomida diniy jaholatparastlikka yo'l qo'ymadi.

L.Sharma Boburning bag'rikenglik madaniyatini izohlashda yana bir hind tarixchisi R.Tripating fikrini ham keltirib: bunga ko'ra "...boburiylar sulolasining faoliyati uning harbiy qudrati tufayligina emas, balki o'z siyosatida diniy e'tiqod erkinligini amalga oshirgani va madaniy hayotga katta hissa qo'shganligi tufaylidir"<sup>1</sup> deydi.

Boburiylar sulolasi Hindistondagi mavjud tariqatlardan Chishtiya tariqati avliyolariga alohida hurmat bilan munosabatda bo'lishgan. Mazkur tariqat namoyandalari sharafiga jumladan, Humoyun Ajmirda ulkan darvoza, Akbar Fotihpur Sekrida maqbara qurdirgan. Bobur esa Shayx Yaxyo Chishti va uning o'g'li Sharafuddin Maneriy Chishtiyni zikr qilganligini keltirish mumkin.

XVI asr oxiri - XVII asr birinchi yarmida Hindistonda so'fiy ta'limotining rivojiga buyuk forsiyzabon shoir va mutafakkirlardan Abul Fayz Fayziy va Abdulqodir Bedillarning hissalar ulkan bo'lgan. Ular o'z asarlarida so'fiy ta'limotining Chishtiya, suhravardiya tariqatlarini keng yoritishgan<sup>2</sup>.

Akbar Hindistondagi yirik diniy ta'limotlardan o'z ichki siyosatiga xizmat qilishi uchun layoqatli tomonlarini yangi din - "Dini ilohiy" sidda uyg'unlashtirib, undagi "Tangri barchaga barobar" tamoyilini musulmon va hind din peshvolarining mutaassiblik kayfiyatiga qarshi qo'ydi. Bu yangi din uchun Akbarshoh maxsus saroy ham qurdirgan bo'lib, unda barcha din vakillari to'planib muqaddas kitoblardagi mushtarak g'oyalar haqida do'stona bahs va munozaralar olib borar edilar.

Bobur O'zbekiston va Hindiston xalqlari o'rtasidagi tarixiy va madaniy aloqalarni, do'stlik va hamkorlik munosabatlarni rivojlantirish hamda mustahkamlashdek muhim xalqaro ishlarda sezilarli darajada ijobiy faoliyat olib borgan insondir.

---

<sup>1</sup> Азизикулов А. Eurasian journal of academic research Innovative Academy Research Su-Pp.ort Center ww Volume 1 Issue 9, December 2021 ISSN 2181-2020. –P. 415.

<sup>2</sup> Ахмедова М., Йўлдошев С., Шоматова О. Ҳинд фалсафаси.-Т. 2006.-Б.57

Kalkutta universiteti professorlari Sinha va Banerjiylarning e'tiroflaricha, Bobur O'rta Osiyo va Hindiston o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Butun Hindiston tarixining eng ajoyib sahifalari ham aynan Bobur asos solgan mazkur sulola davridan iboratdir.

Tadqiqot ishining ushbu bobida Chishtiya tariqati asoslari takomillashuvi va rivojlanish omillariga ham e'tibor qaratiladi. Xususan, tariqatdagi uch asosga ahamiyat qaratiladi:

